

**"Kapitalbank" ATBda yuridik shaxslar va yakka
tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini
ko'rsatish bo'yicha Kelishuvga
1-ILOVA**

**Milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlari ochish, yuritish va yopish
TARTIBI**

I. QO'SHIMCHA ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Mazkur Tartibda quyidagi atamalar va ta'riflardan foydalaniladi:

1.2. Pul mablag'lari - O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi (so'm)dagi pul mablag'lari;

1.3. "Faktura.uz" axborot tizimi - Axborot vositachisining apparat-dasturiy vositalardan tashkil topgan axborot tizimi bo'lib, u "Faktura.uz" elektron hujjat aylanishi axborot tizimi orqali elektron hujjatlarni shakllantirish, qabul qilish, jo'natish va yetkazib berish kabi jarayonlar majmuini amalga oshirish imkonini beradi. Bu tizimdan shuningdek, bitimlar tuzish, hisob-kitoblarni amalga oshirish, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotlarni almashishda foydalanish mumkin.

Tartib – milliy valyutada bank hisobvarag'ini ochish, yuritish va yopish tartibi. Ushbu Tartib Bankning rasmiy veb-saytida joylashtirilgan;

Hisobvaraq – milliy valyutada talab qilib olinguncha depozit hisobvaraq bo'lib, Bank tomonidan Mijozga Ariza yoki Mijozning hisobvaraq ochish to'g'risidagi Arizasi asosida ochiladi va unda Mijozning birinchi talabi bilan oq beriladigan yoki o'tkazib beriladigan mablag'larning hisobi yuritiladi.

Sanksiyalar - davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarning qaroriga binoan davlatlar, tashkilotlar yoki ayrim jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan iqtisodiy yoki boshqa turdagi jamoaviy yoxud bir tomonlama majburlov choralari.

Sanksiyalar ro'yxati - BMT Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi va AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC, Office of Foreign Assets Control) tomonidan sanksiyalar ostiga tushgan davlatlar, tashkilotlar yoki alohida jismoniy va yuridik shaxslardir. Shuningdek, bu ro'yxatga boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar ham kiritilishi mumkin bo'lib, ular Bankka nisbatan, uning faoliyatiga bevosita yoki bilvosita tahdid soluvchi sanksiyalarni joriy etish huquqiga ega.

1.2. Ushbu Tartibda qo'llaniladigan boshqa atamalar va ta'riflar Kelishuvdagi bilan bir xil ma'noga ega.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Mazkur Tartib Mijoz tomonidan qo'lda yoki ERI bilan imzolangan Arizaga asosan Tomonlar uchun majburiy bo'ladi (kuchga kiradi) va Mijozga Hisobvaraq ochish va uni yopish, unga kelib tushadigan pul mablag'larini qabul qilish va kiritib qo'yish, hisobvaraqdan Pul mablag'larini o'tkazish va to'lovlar amalga oshirish, kassa xizmatlarini ko'rsatish, birjadan tashqari valyuta bozoridagi operatsiyalar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, KBX va ushbu Tartibda belgilangan tartibda hisobvaraq bo'yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish (bajarish) bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

2.2. Mazkur Tartib, Kelishuv, Bank tariflari, Ariza, Ommaviy oferta va Hisobvaraq ochish to'g'risidagi ariza (agar hisobvaraq Davlat xizmatlari markazi orqali ochilgan yoki "Faktura.uz" axborot tizimi orqali yuborilgan bo'lsa) birgalikda Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan milliy valyutada bank hisobvarag'i shartnomasi (keyingi o'rinlarda «Shartnoma» deb yuritiladi) hisoblanadi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. Bankning majburiyatlari:

3.1.1. Mijozning topshirig'iga ko'ra amaldagi qonun hujjatlari doirasida hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hisob-kitob va kassa operatsiyalarini amalga oshirish, shu jumladan:

a) Mijozning hisobvarag'iga kelib tushgan pul mablag'larini qabul qilish va tegishli to'lov hujjati Bankka kelib tushgan kunning o'zida yoki keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijoz hisobvarag'iga kiritish;

b) Mijozning hisobvarag'idan pul mablag'larini, tegishli to'lov hujjatlari asosida o'tkazish (to'lash) to'g'risidagi topshiriqlarini bajarish;

c) Mijozning qarz majburiyatlari bo'yicha to'lov talabnomalarini va inkasso topshiriqnomalarini amaldagi qonun hujjatlari doirasida bajarish;

d) amaldagi qonunchilik va "Kapitalbank" ATBning lokal (ichki) hujjatlariga muvofiq Mijozdan naqd pul mablag'larini qabul qilish va berish;

e) boshqa hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish (Bank va Mijoz o'rtasida tuzilgan alohida shartnomalar bilan tartibga solinadigan operatsiyalar bundan mustasno);

3.1.2. Bankka hisob-kitob hujjatlari (to'lov talabnomalari) kelib tushgan (inkasso topshiriqnomasi va akseptsiz to'lov talabnomasi bundan mustasno) kuni yoki keyingi ish kunidan kechiktirmay Mijoz hisobvarag'idan mablag'larni faqat uning topshirig'i yoki roziligi asosida hisobdan chiqarish. Mijoz hisobvarag'ida pul mablag'lari bo'lmaganida yoki ular yetarli bo'lmaganida, Bank to'lov hujjatining to'lanmagan summasini 2-sonli kartotekaga o'tkazadi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno);

3.1.3. Mijozlarga xizmat ko'rsatish jadvalida belgilangan vaqtda Mijozga bank xizmatlarini ko'rsatish, dam olish va bayram (ish kuni hisoblanmagan) kunlari bundan mustasno;

3.1.4. Mijozning topshirig'iga binoan hisob-kitob operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga qat'iy muvofiq ravishda amalga oshirish. Mijozning hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish uning topshirig'i asosida, to'lov hujjatlari Bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmasdan amalga oshiriladi. Mijozning topshirig'isiz uning hisobvarag'idan pul mablag'larini hisobdan chiqarishga faqat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardagina yo'l qo'yiladi;

3.1.5. Mijozning topshirig'i bo'yicha hisob-kitob operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasi hududida o'rnatilgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni o'tkazish qoidalariga muvofiq amalga oshirish. Bank Mijoz va/yoki Mijoz tomonidan vakil qilingan shaxslar imzolarining namunalari va muhrining izi (agar mavjud bo'lsa) qo'yilgan varaqchadagi shaxslardan pul-hisob hujjatlarini bajarish uchun qabul qiladi;

3.1.6. to'lov hujjatlarini qabul qilishda barcha zaruriy rekvizitlar, imzolar va boshqa axborotlarning to'g'ri rasmiylashtirilganini tekshirish, rasmiylashtirilgan to'lov hujjatining ijrosini tegishli tartibda, agar u bank operatsion kuni mobaynida kelib tushgan bo'lsa, shu kunning o'zida, agar bank operatsion kuni tugagandan so'ng kelib tushsa, keyingi ish kunidan kechiktirmay ta'minlash;

3.1.7. Mijozni kassa hujjatlari (naqd mablag'larni kiritish uchun arizalar blanklari va boshqa zarur blanklar) bilan ta'minlash;

3.1.8. Mijozning topshirig'i bo'yicha unga yoki uning vakiliga (ishonchnoma asosida) hisobvaraqdan ko'chirmalar va boshqa hujjatlarni taqdim etish;

3.1.9. Mijoz hisobvarag'idagi pul mablag'larining butligini ta'minlash;

3.1.10. Mijoz hisobvarag'ida bo'sh pul mablag'lari mavjud bo'lganida yoki hisobraqamda mablag' yetishmasligi sababli bron mavjud holatlarda, Mijozning birinchi talabiga binoan, birinchi navbatda ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalarning to'lanishini ta'minlash;

3.2. Mijozning majburiyatlari:

3.2.1. hisob-kitob operatsiyalarini bajarishi uchun Bankka barcha zarur hujjatlarni taqdim etish;

3.2.2. bankning ish jadvaliga, tegishli to'lov hujjatlari hamda mazkur Shartnoma predmetiga doir "Kapitalbank" ATBning boshqa lokal hujjatlarini rasmiylashtirish va taqdim etish tartibiga amal qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankinging amaldagi normativ hujjatlari talablarini bajarish;

3.2.3. Bank tomonidan Mijozning naqd pul mablag'lariga bo'lgan ehtiyojini aniqlash maqsadida, har chorak boshlanishidan 30 kun oldin Bankka belgilangan shakldagi kassa buyurtmanomasini taqdim etish;

3.2.4. hisobvaraqda mablag'lar mavjud bo'lganida, ish haqi, pensiya va nafaqalarni berish jadvaliga muvofiq, Bankka naqd pul olish uchun pul chekini taqdim etish va olingan pul mablag'laridan qat'iy maqsadi bo'yicha foydalanish;

3.2.5. to'lovlarni amalga oshirish uchun o'zining Hisobvarag'ida yetarli pul mablag'lariga ega bo'lish;

3.2.6. ko'rsatilgan Bank xizmatlari uchun to'lovlarni Bank tariflarida ko'zda tutilgan tartibda amalga oshirish;

3.2.7. deponentga o'tkazilgan ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va moddiy yordamni belgilangan muddatlarda Bank kassasiga topshirish;

3.2.8. o'z kassasidagi naqd mablag'larning kelish va sarflanish tartibiga, shuningdek, kassa intizomi hamda limitdan tashqari naqd mablag'ni Bankka topshirish tartibiga amal qilish;

3.2.9. Mijoz shu orqali quyidagilarni so'zsiz tasdiqlaydi va kafolat beradi:

a) tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo'yicha barcha kontragentlar, shu jumladan ularning ishtirokchilari, aksiyadorlari, yakuniy benefitsiarlari va nazorat qiluvchi shaxslari sanksiyalar ro'yxatlariga kiritilmagan va kiritilmaydi. Bu ro'yxatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi (ammo ular bilan cheklanmaydi):

- SDN List (AQSH);
- AQSHning taqiqlovchi sanksiya ro'yxatlari;
- Yevropa Ittifoqining sanksiya ro'yxatlari;
- Buyuk Britaniyaning sanksiya ro'yxatlari;
- boshqa qo'llaniladigan sanksiya va cheklov ro'yxatlari.

b) tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar:

- AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning taqiqllovchi sanksiyalar ro'yxatlariga kiritilgan biron-bir tashkilotga qayta sotilmaydi, yetkazib berilmaydi, eksport qilinmaydi va/yoki tashilmaydi, shuningdek AQSH va Yevropa Ittifoqining eksport nazorati tomonidan taqiqlangan maqsadlarda foydalanilmaydi;

- AQSH eksport nazorati qoidalarini buzadigan tarzda qayta sotilmaydi yoki yetkazib berilmaydi, Rossiya harbiy-sanoat majmuasi va mudofaa sanoati bilan aloqador yoki boshqacha tarzda bog'liq bo'lgan kompaniyalarga qayta sotilmaydi, yetkazib berilmaydi, eksport qilinmaydi va/yoki tashilmaydi, shuningdek Rossiyaning harbiy-sanoat bazasini mustahkamlashga boshqacha yo'l bilan ko'maklashmaydi;

c) Mahsulotlar, tovarlar, ishlar, xizmatlar va operatsiyalar (shu jumladan, ekspeditor, tashuvchi va fraxtllovchi tomonidan tranzit va tashish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda transport ekspeditsiyasi, tashish va charter (fraxtlash) shartnomalari bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalar) sanksiya ostidagi mamlakatlar va ro'yxatlarga to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita aloqador emasligiga (shu jumladan, moliyaviy jihatdan ham) javobgar bo'ladi.

Mijoz (xaridor sifatida) AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning eksport nazorati qoidalarini tomonidan qo'yilgan yetkazib beriladigan tovarlar, xizmatlar, texnologiyalar yoki dasturiy ta'minotdan foydalanish va o'tkazish, shuningdek, Amerikada ishlab chiqarilgan har qanday buyum yoki Amerikada ishlab chiqarilgan tarkibiy qismga ega bo'lgan tovarlar yoki AQSH yoxud Yevropa Ittifoqining intellektual mulk huquqlariga taalluqli cheklovlarini anglab yetadi. Ular AQSH, Yevropa Ittifoqi va Buyuk Britaniyaning eksport nazorati qoidalarini buzgan holda Rossiyaga yetkazib berilgan bo'lishi mumkin. Mijoz yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga oid biron-bir o'zgarish bo'lganini bilsa, u bunday o'zgarishlar haqida Bankni o'z vaqtida xabardor qilish majburiyatini oladi.

3.3. Tomonlar maxfiylikka rioya qilishlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollardan tashqari, boshqa tomonning yozma rozilgisiz ma'lumotlarni oshkor etmasliklari shart.

3.4. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kelishuvda ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

3.5. O'z hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmani (yoki hisobvarag'i haqidagi ma'lumotni) olgan kundan boshlab 2 (ikki) ish kuni davomida o'z hisobvarag'iga begona mablag' kelib tushganligi haqida xabar berish;

IV. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Bankning huquqlari:

4.1.1. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari, "Kapitalbank" ATBning lokal hujjatlari va Shartnomada belgilangan hisob-kitoblar tartibining buzilishi, shuningdek, Mijoz tomonidan to'lov hujjatlarini rasmiylashtirish va o'z vaqtida taqdim etish tartibining buzilishi aniqlangan hollarda, operatsiyani to'xtatib turish (qonunga zid bo'lgan operatsiyalarni bajarishdan bosh tortish) choralarini ko'rish va/yoki uning o'tkazilishini to'xtatish;

4.1.2. Mijoz mablag'larining butligi va ulardan erkin foydalanishini kafolatlagan holda, Mijozning bo'sh pul mablag'laridan resurslar sifatida foydalanish;

4.1.3. bank operatsiyalarini o'tkazish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlarning haqiqiyliigi bo'yicha shubha paydo bo'lganida, operatsiyani o'tkazishni to'xtatish, shu bilan birga, imzo qo'yish huquqiga ega bo'lgan Mijozning mansabdor shaxslarini xabardor qilish hamda Mijozdan o'tkazilayotgan operatsiyaning qonuniyligini tasdiqllovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilish;

4.1.4. quyidagi hollarda pul mablag'lari yoki boshqa mulk bilan operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish:

- yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxs yoki Mijozning boshqaruv organi o'zining joylashgan manzili (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'lmaganida;

- atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganida yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq so'ralgan hujjatlar taqdim etilmaganida;

- terrorchilik yoki boshqa jinoiy faoliyatda ishtirok etishi yoki ishtirok etganlikda gumon borligi haqida O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq olingan ma'lumotlar mavjud bo'lganida;

- hisobvaraqdagi pul mablag'lari xatlanganda yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlarda hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganda;

4.1.5. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va "Kapitalbank" ATBning lokal hujjatlarida belgilangan tartibda, amaldagi qonunchilikka muvofiq shaxslar Ro'yxatga kiritilgan hollarda, Mijozning rozilgisiz pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalarni (pul mablag'larini kirim qilish operatsiyalari bundan mustasno) muzlatish va/yoki to'xtatib qo'yishni amalga oshirish. Operatsiya to'xtatilganda va (yoki) pul mablag'lari hamda boshqa mol-mulk muzlatilganda, Mijozning farmoyishlari asosida hisobvaraqlardan pul mablag'larini yechib olish amalga oshirilmaydi. Shu bilan birga, KBXSH va/yoki Shartnomalar bekor qilingan taqdirda, mijoz o'zining hisob-kitob raqamidagi qoldiq mablag'larni boshqa bankda ochilgan hisobvaraqlariga o'tkazishi shart.

4.1.6. Mijozning asosiy talab qilib olinguncha hisobvarag'ida 2-kartoteka mavjud bo'lgan taqdirda, Mijozning ikkilamchi hisobvaraqlari, shuningdek, boshqa banklarda ochilgan hisobvaraqlaridagi pul mablag'larini Mijozning asosiy hisobvarag'iga o'tkazish (O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ushbu talab taalluqli bo'lmagan hisobvaraqlar bundan mustasno);

4.1.7. Bankning ish kuni yakunlanib, balans hisoboti tuzilganidan keyin xatoliklar aniqlangan taqdirda, keyingi bank ish kunida Mijozning rozilgisiz uning hisobvarag'idan teskari buxgalter yozuvlari kiritish yo'li bilan noto'g'ri o'tkazilgan summani yechib olish;

4.1.8. Mijozning milliy valyutadagi asosiy hisobvarag'ida pul mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda va uning valyuta hisobvarag'ida valyuta mablag'lari mavjud bo'lganida, budjet va boshqa qarzdorliklar to'lovlarini qonunchilikda belgilangan tartibda o'z vaqtida ta'minlash maqsadida Mijozning rozilgisiz Mijozning valyuta mablag'larini sotish kuniga belgilangan kurs bo'yicha qarzdorlikni uzish uchun zarur bo'lgan hajmda sotish;

4.1.9. Kelishuvning 8.5-bandida nazarda tutilgan tartibda hisobvaraqlarni mustaqil ravishda yopish;

4.1.10. Bank tuzilayotgan tashqi savdo kontraktlari (shartnomalari) bo'yicha quyidagi huquqlarga ega:

- Mijozning faoliyati va muayyan bitim yoki operatsiyani tekshirish, shu jumladan Mijozga so'rov yuborish (bajarish muddati 2 ish kuni) orqali iqtisodiy sanksiyalar to'g'risidagi qonunchilik (BMT Xavfsizlik Kengashi, AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarni nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) yoki AQSH, Kanada yoki Buyuk Britaniya hukumatining boshqa organi tomonidan nazorat qilinadigan) talablarining Bank tomonidan bajarilishi uchun zarur bo'lgan ma'lumot va hujjatlarni olish;

- operatsiyani o'tkazish/bajarishni rad etish va zudlik bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga xabar berish;

- kiruvchi to'lovni qaytarish yoki chiquvchi to'lovning amalga oshirilishini to'xtatib qo'yish;

- maxfiylik talablariga to'liq rioya qilgan holda, mijozni operatsiyani o'tkazish/bajarish natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sanksiya xavflari haqida ogohlantirish;

- operatsiyani o'tkazish shartlari, "Kapitalbank" ATBning sanksiyalar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish siyosati qoidalar va Bankning «risk-appetiti»ga muvofiqligini tekshirish davomida operatsiyani o'tkazishni/bajarishni to'xtatib turish, bunda tekshiruv o'tkazish muddatini Bank mustaqil ravishda belgilaydi;

- korrespondent banklariga so'rov yuborish, to'g'ridan to'g'ri yoki 50% qoidasi bo'yicha bloklash sanksiyalari ro'yxatiga kiritilgan to'lovlarni Bankga o'tkazmaslik va jo'natuvchi-bankka qaytarish;

- taqiqlovchi sanksiyalar ro'yxatiga kiritilgan tomonga nisbatan tegishli choralarni ko'rish, jumladan, (lekin bular bilan cheklanmagan holda): tashqi savdo kontrakti (shartnomasi) bo'yicha xizmat ko'rsatishni to'xtatish, Mijozning hisob raqamini bloklash va Mijoz bilan ishbilarmonlik aloqalarini tugatish;

- bunday holatlarning qayta yuz berishiga yo'l qo'ymaslik uchun boshqa zarur choralarni amalga oshirish.

4.1.10.1. Bank quyidagi qo'shimcha huquqlarga ega:

- yuqori xavfli operatsiyalarni chuqurlashtirilgan tekshiruvdan o'tkazish;

- sanksiyaviy xavf-xatarlarini baholash bo'yicha tashqi ekspertlarning xulosalarini so'rash;

- xavfli operatsiyalar bo'yicha hujjat aylanishiga qo'shimcha talablar o'rnatish;

- chet ellik kontragentlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar ustidan alohida nazorat tartibini joriy etish.

4.2. Mijozning huquqlari:

4.2.1. Amaldagi qonun hujjatlari, Kelishuv va Shartnomaga muvofiq o'z hisobvarag'idagi pul mablag'laridan erkin foydalanish;

4.2.2. Bankka hisob-kitob va kassa operatsiyalarini bajarishga topshiriq berish, ularning o'z vaqtida bajarilishini talab qilish, inkasso bo'yicha hisob-kitoblarni haqida so'rovlar berish;

4.2.3. hisobvarag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lganida va ular bronlab qo'yilganida ish haqini to'lash jadvaliga binoan qonunchilikka muvofiq ravishda naqd pul mablag'larini olish;

4.2.4. Bankka belgilangan joyga tushmagan pul mablag'larini izlash, ularning qayerdaligini aniqlash va qaytarish to'g'risida iltimosnoma bilan murojaat qilish;

4.2.5. O'zbekiston Respublikasi bank qonunchiligiga kiritilgan qo'shimchalar va o'zgarishlar bo'yicha axborot olish.

4.3. Bank Mijozning pul mablag'laridan o'z ixtiyoriga ko'ra (qonunchilik, Kelishuv va mazkur Tartibda ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno) foydalanish va tasarruf etish bo'yicha huquqlarini cheklashga haqli emas.

4.4. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kelishuvda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

V. KOMISSIYA HAQI VA UNI TO'LASH TARTIBI

5.1. Mijoz bank xizmatlari uchun to'lovni Bank tariflari asosida amalga oshiradi.

5.2. Ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, pensiyalar, nafaqalar hamda stipendiyalar berilganda, shuningdek Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'larini kirim qilish uchun Bank hech qanday vositachilik haqi undirmaydi.

5.3. Quyidagi hollarda Mijozlarning passiv hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatilgani uchun oylik komissiya hisoblanmaydi va undirilmaydi:

a) Mijozning milliy valyutadagi hisob-kitob yoki tranzit hisobvaraqlari bo'yicha bir oy davomida biror operatsiya amalga oshirilmagan bo'lsa;

b) Mijozning hisob raqami bo'yicha faqat kredit operatsiyalari amalga oshirilgan bo'lsa;

c) ssuda hisobvaraqlari bo'yicha ssuda qarzlari to'langanda;

d) 16300 - "olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar" va 16400 - "olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizsiz daromadlar" hisobvaraqlari bo'yicha qarzlarni hisoblanganida va to'langanida;

e) Mijozning bank filiali ichidagi bir hisobvarag'idan boshqasiga milliy valyutada mablag' o'tkazilganda (Mijozning mijozning unikal kodi mos kelishi sharti bilan);

f) korporativ kartani to'ldirishda (Mijozning mijozning unikal kodi mos kelishi sharti bilan);

g) pul mablag'lari (aniqlangunga qadar) hisobvaraqlarga o'tkazilganda;

h) mijozning identik unikal kodi bilan ochilgan maxsus blok-hisobvaraqlarni to'ldirishda;

j) Bank filialidan-filialiga mijoz hisobvarag'idagi qoldiq o'tkazilishida (joriy oyda hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar bo'lmagan taqdirda).

5.4. Hisobvaraqlardagi pul mablag'laridan foydalanganlik uchun Bank Mijozga foiz to'lamaydi (Bank va Mijoz o'rtasida tuziladigan alohida shartnomalar bundan mustasno).

5.5. Mijozlarning passiv hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatish uchun vositachilik haqini yechib olish Mijozning farmoyishisiz, akseptsiz tartibda va har oyda memorial orderga muvofiq ravishda joriy oydagi Mijozning hisobvarag'i bo'yicha birinchi to'lov o'tkazilishi vaqtida amalga oshiriladi. Bunda, birinchi navbatda passiv hisobvaraqlarga xizmat ko'rsatish uchun vositachilik haqi undiriladi (budjet oldidagi qarzlarni to'lash holatlari hamda bevosita amaldagi qonunchilik yoki Bankning lokal hujjatlarida ko'rsatilgan boshqa holatlar bundan mustasno).

5.6. Mijozning hisobvarag'ida vositachilik haqini qoplash uchun pul mablag'lari mavjud bo'lmaganida yoki ular yetarli bo'lmaganida, qarzning qoplanmagan qismi belgilangan tartibda bajariladigan to'lov talabnomasini taqdim etish orqali Mijozning 2-sonli Kartotekaga joylashtiriladi. Mazkur to'lov talabnomasi Mijoz tomonidan qo'shimcha tasdiqlanishini talab qilmasdan akseptlangan hisoblanadi.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

6.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, Kelishuv va ushbu Tartibga muvofiq javobgar bo'ladilar.

6.1.1. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

- korrespondent-banklarning operatsiyalarni amalga oshirishdan bosh tortishi natijasida yuzaga kelgan Mijozning zararlari;

- Mijozning xorijiy va milliy banklarning vakillik hisobvaraqlaridagi mablag'lari bloklanishi;

- qo'shimcha tekshirishlar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirishdagi kechikishlar;

- sanksiyaviy xavf-xatarlarning bilvosita alomatlarini aniqlanganda operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish.

6.2. Shartnoma Mijozning arizasi asosida, Mijoz shartnoma majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Bankning talabiga ko'ra chiqarilgan sud qarori bilan, shuningdek amaldagi qonunchilik va Kelishuvda belgilangan boshqa hollarda bekor qilinguniga yoki to'xtatilguniga qadar amal qiladi.

6.2.1. Shartnoma Mijoz tomonidan unga ko'rsatilgan bank xizmatlari bilan bog'liq barcha to'lovlar amalga oshirilganidan so'ng, istalgan vaqtda belgilangan tartibda bekor qilinishi mumkin.

6.2.2. Tomonlar quyidagilarni kelishib oladilar va tasdiqlaydilar: agar Tomonlardan biri yoki naf oluvchi shaxslar BMT Xavfsizlik Kengashi, Yevropa Ittifoqi, AQSH Moliya vazirligining Xorijiy aktivlarini nazorat qilish boshqarmasi (OFAC) yoxud AQSH, Yevropa Ittifoqi yoki Buyuk Britaniya hukumatining boshqa organi tomonidan tuzilgan sanksiyalar ro'yxatiga kiritilsa, shuningdek boshqa sanksiyaviy xavf-xatarlar yuzaga kelsa, Tomonlardan har biri Shartnoma va/yoki Kelishuvni zudlik bilan bir tomonlama tartibda bekor qilish yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega (boshqa Tomonni yozma ravishda xabardor qilgan holda).

Ushbu band bo'yicha Shartnoma va/yoki Kelishuvni bir tomonlama bekor qilish va to'xtatib qo'yish Tomonlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bo'lib, Shartnoma va/yoki Kelishuvni buzish deb hisoblanmaydi hamda Tomonlarga nisbatan mulkiy sanksiya va boshqa salbiy oqibatlarni qo'llash uchun asos bo'la olmaydi.

6.2.3. Tomonlar quyidagilarni tan oladilar va kelishib oladilar:

- sanksiya bo'yicha mazkur qo'shimcha shart Shartnoma va/yoki Kelishuvning muhim qismi hisoblanib, uning buzilishi Shartnoma va/yoki Kelishuvni bekor qilish uchun asos bo'ladi hamda Shartnoma va/yoki Kelishuvning butun amal qilish muddati davomida kuchida qoladi.

- sanksiya bo'yicha qo'shimcha shartning barcha bandlari bir-biridan mustaqil bo'lib, bitta bandning haqiqiy sanalmasligi boshqa bandlarining haqiqiy sanalmasligiga sabab bo'lmaydi.

- sanksiya bo'yicha qo'shimcha shart va Shartnoma va/yoki Kelishuvning boshqa shartlari o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelgan taqdirda, sanksiya bo'yicha qo'shimcha shartning bandlari ustunlik kuchiga ega bo'ladi.

6.3. Shartnoma bekor qilinganidan keyin Bank hisobvaraqlarni yopadi, Mijozning arizasiga muvofiq 7(yetti) ish kunidan kechiktirmasdan unga hisobvarag'idagi pul mablag'larining qoldig'ini beradi yoki uning topshirig'i bo'yicha pul mablag'larining qoldig'ini boshqa hisobvaraqa o'tkazadi. Agar Mijoz shartnoma bekor qilingan kundan boshlab 7 (yetti) ish kuni ichida pul mablag'larini boshqa hisobvaraqa o'tkazish haqida Bankka yozma ko'rsatma bermasa, unda Bank Mijozning hisobvarag'idagi mablag'lar qoldig'ini 29842- hisobvaraqa o'tkazadi.

6.4. Shartnoma va/yoki Kelishuvning amal qilishi to'xtatilishi yoki bekor qilinishi Hisobvaraqlarni yopish uchun asos hisoblanadi. Mijozning asosiy/ikkilamchi hisobvaraqlari unga tegishli boshqa hisobvaraqlar (tranzit, sxemali, maxsus, maqsadli va boshqalar) yopilganidan so'ng yopiladi.

6.5. Mijoz 6 (olti) oy davomida, savdo va savdo-vositachilik faoliyatida esa 3 (uch) oy davomida Hisobvaraqlar bo'yicha pul operatsiyalarini amalga oshirish orqali moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritmaganligi, shuningdek tugatish komissiyasi Mijozning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Ustav fondini shakllantirmaganligi sababli uni tugatish to'g'risida qaror qabul qilishi holatida, Bank amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shartnomani bir tomonlama to'xtatib qo'yadi.

6.5.1. Tugatish komissiyasi Mijoz qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda Ustav fondini shakllantirmaganligi sababli tugatish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda, Shartnomaning amal qilishini to'xtatish amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

6.6. Shartnoma bekor qilingan yoki to'xtatilgan hollarda, Bank tariflariga muvofiq hisoblangan vositachilik haqi Mijozga qaytarilmaydi.

6.7. Shaxsga doir ma'lumotlar.

6.7.1. Shartnoma tuzish uchun Mijoz Bankka/Bank hamkorlariga ("Kapitalbank" ATB bilan bir bank guruhiga kiruvchi shaxslar/"Kapitalbank" ATBning affillangan shaxslari, Bank bilan shartnomaviy (hamkorlik) munosabatlarga ega bo'lgan kompaniyalar (hamkor banklar, auditorlar, sug'urtalovchilar, telekommunikatsiya tarmoqlari operatorlari va provayderlari, transport kompaniyalari, temir yo'l/aviakompaniyalar, konsalting, baholovchi kompaniyalar, supermarketlar, restoranlar va boshqa xususiy va davlat tashkilotlari, muassasalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar)ga KBXSH, Shartnoma va Bank tomonidan boshqa shaxslar bilan tuzilgan boshqa shartnomalar doirasida Bankka quyidagi maqsadlarda taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berilishiga (shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, yozish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, qo'llash, uzatish (tarqatish, taqdim etish, kirish imkoniyatini berish, jumladan uchinchi shaxslarga shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish topshirilganida), egasizlantirish, bloklash, o'chirib yuborish, yo'q qilishning avtomatlashtirilgan vositalarini qo'llash bilan va ularni qo'llamasdan qog'oz va/yoki elektron tashuvchilarda amalga oshirishga) o'z roziligini taqdim etadi:

- Bank tomonidan Kelishuv, Kelishuv doirasidagi Shartnomalar, ta'minlovchi shartnomalar va Bank bilan boshqa shartnomalarni tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish (ularni tuzish bo'yicha ijobiy yoki salbiy qaror Bank tomonidan qabul qilinishi mumkin), shu jumladan faqat Mijozning Shaxsga doir ma'lumotlariga avtomatlashtirilgan ishlov berish bilan;

- Mijoz tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini, hamda bank mahsulotlarini taqdim etishga Mijozning arizalari (iltimosnomalar va boshqa hujjatlar)ni ko'rib chiqishda kreditga layoqatligi /to'lov qobiliyatini tekshirish, jumladan, ularni qiyoslash/tekshirish zaruratida uchinchi shaxslarga shaxsga doir ma'lumotlarni topshirish;

- Kelishuv, Shartnoma va boshqa shartnomalarni bajarish va bekor qilish, shu jumladan bank operatsiyalarini amalga oshirish va bank xizmatlarning barcha turlarini taqdim etish, Mijoz va Bank o'rtasida tuzilgan ta'minot shartnomalari va boshqa shartnomalarni, hamda Bank tomonidan boshqa shaxslar, jumladan sug'urtalovchilar (ular bo'yicha Mijoz vakil, sug'urtalovchi, sug'urtalangan shaxs yoki naf oluvchi hisoblanadi) bilan tuzilgan shartnomalarni bajarish, jumladan shunday shartnomalar bo'yicha ko'rsatib o'tilgan shaxslarga Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini uzatish, Shartnomalar bo'yicha kreditning huquqlarini amalga oshirish munosabatida, jumladan uchinchi shaxslarga huquqlardan (talablardan) voz kechish yo'li bilan Bank bilan bitimlarni tuzish;

- shartnomalar bo'yicha qarzdorlikni talab qilib olish (so'ndirish, undirish);

- shaxsga doir ma'lumotlarning himoyasini amalga oshirish, saqlash, jumladan elektron ko'rinishda, va Amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari va bank siriga ega bo'lgan hujjatlarni tashish;

- shartnomalarni tuzish, bajarish va shunday shartnomalar bo'yicha bank tomonidan o'z huquq va majburiyatlarini amalga oshirishga taalluqli har qanday shakldagi xulosalar va maslahatlarni olish, jumladan bunday xulosalar va maslahatlarni olish maqsadida Bank tomonidan jalb qilinadigan auditorlarga va boshqa uchinchi shaxslarga Mijozning Shaxsga doir ma'lumotlarini topshirish;

- Bankning Mijoz bilan tuzgan Shartnomalari, boshqa hujjatlarida ko'rsatiladigan boshqa maqsadlar.

6.7.2. Shuningdek, Mijoz Bankka va Bank hamkorlariga o'zining shaxsga doir ma'lumotlari va biometrik shaxsiy ma'lumotlarining har qanday maxsus toifalariga ishlov berish huquqini (rozilik) beradi (shunday shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish zarurati mazkur rozilikda ko'rsatilgan ishlov berish maqsadida istalgan vaqtda vujudga kelgan holatda).

Bankka taqdim etilayotgan (arizalar, iltimosnomalar va boshqa) hujjatlarda uchinchi shaxslar (vakil, naf oluvchi va/yoki boshqa shaxslar) haqidagi ma'lumotlarni ko'rsatgan holda, Mijoz Kelishuv, Shartnoma va boshqa shartnomalarni tuzish haqida Bank tomonidan qarorlar qabul qilish, hamda shunday shartnomalar bo'yicha Bank va Mijoz tomonidan huquq va majburiyatlarni kelajakda amalga oshirish maqsadida Mijoz tomonidan taqdim etilgan ushbu shaxslarga doir ma'lumotlarga ishlov berish, shuningdek ularni saqlash vazifalarini amalga oshirishni Bankka topshiradi. Shu bilan birga, Mijoz Mijoz tomonidan bunday shaxslarning Bankka taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarini Mijoz, Bank hamda Bank hamkorlari tomonidan qayta ishlashga (shu jumladan Bankka o'tkazishga) rozilik olganligini tasdiqlaydi.

6.8. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar.

6.8.1. Tomonlar Shartnoma va/yoki Kelishuv kuchga kirgan sanada na o'zlari, na ularning vakillari, xodimlari, nazorati yoki ta'siri ostida bo'lgan boshqa shaxslar noqonuniy pul yoki boshqa turdagi imtiyozlarni taklif etmaganligi, talab qilmaganligi va qabul qilmaganligi, shuningdek, kelajakda Shartnoma va/yoki Kelishuvni tuzish va bajarish bilan bog'liq bo'lgan bunday harakatlarni amalga oshirish niyatida emas ekanligiga kafolat beradi.

6.8.2. Tomonlar Shartnoma va/yoki Kelishuv bilan bog'liq ravishda, uning butun amal qilish muddati davomida quyida ko'rsatilgan qoidalarga rioya etishga, o'z vakillari, xodimlari va nazorati yoki ta'siri ostida bo'lgan boshqa uchinchi shaxslar tomonidan ushbu qoidalarga rioya etilishini ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rishga majburiyat oladi.

6.8.3. Tomonlar Shartnoma va/yoki Kelishuvning amal qilish muddati davomida quyidagi harakatlarni hech qanday shaklda, jumladan uchinchi shaxslar orqali ham, amalga oshirmaslik majburiyatini oladi:

a) Poraxo'rlik - tijoriy yoki boshqa turdagi g'ayriqonuniy imtiyozlarni qo'lga kiritish yoki saqlab qolish maqsadida yuqorida ko'rsatilgan shaxslardan biri yoki boshqa shaxslar foydasiga yoxud ular tomonidan mulkiy yoki boshqa turdagi har qanday g'ayriqonuniy nafni taklif qilish, yetkazish, rozilik bildirish yoki olish;

b) Pora talab qilish yoki pora berishga undash - rad etilgan taqdirda qo'rqitish bilan bog'liq bo'lgan yoki bog'liq bo'lmagan holda poraning talab qilinishi;

c) Vakolatini suiiste'mol qilish - tijorat yoki boshqa tashkilotda boshqaruv yoxud boshqa vazifalarni bajarayotgan shaxsning o'z vakolatidan mazkur tashkilotning qonuniy manfaatlariga zid ravishda foydalanishi bo'lib, bunda shaxs o'zi yoki boshqalar uchun foyda va imtiyozlar olish yoxud boshqalarga zarar yetkazish maqsadini ko'zlaydi;

d) Yuqorida tilga olingan korrupsiyaviy amaliyotlardan olingan daromadlarni legallashtirishga urinish, shuningdek, quyidagilarni yashirish yoki sir tutish:

- manbaning jinoiy kelib chiqishi;

- joylashgan o'rni;

- tasarruf etish usuli;

- bunday mol-mulk jinoyatlardan olingan daromad ekanligi ma'lum bo'lgan taqdirda, mulkning, shu jumladan pul mablag'larining kimga tegishligi va ko'chirilishi;

e) Shartnoma (Kelishuv) Tomonlarining amaldagi korrupsiyaga qarshi qonunchiligini buzuvchi boshqa harakatlar sodir etilishi. Tegishli Tomon O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi qonunchiligida belgilangan qo'shimcha taqiqlar to'g'risida boshqa Tomonni darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart;

6.8.4. Tomonlarning biri Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda ko'rsatilgan har qanday fakt yoki asosli shubha to'g'risida boshqa Tomonni darhol yozma ravishda xabardor qilishi, tashkilotda ishbilarmonlik etikasi qoidalariga rioya etish madaniyatini hamda har qanday korrupsion harakatda ishtirok etishga nisbatan murosasizlikni targ'ib qilishi shart;

6.8.5. Tomonlar Shartnoma va/yoki Kelishuvni to'xtatish yoki bekor qilish uchun Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarning 6.8.3-bandida ko'rsatilgan faktni qonuniy kuchga kirgan tegishli sud qarori bilan tasdiqlash zarurligi to'g'risida kelishib oladilar.

6.9. Bank tomonidan berilgan elektron raqamli imzo (bundan keyin - "Bank ERI") va maxsus bir martalik o'zgaruvchan kodlardan (bundan keyin - "MBMO'K") masofaviy xizmat ko'rsatish kanallarida foydalanish qoidalari.

6.9.1. Tomonlar Bank ERI va MBMO'Kni tan oladi hamda ulardan quyidagi maqsadlarda foydalanishga rozilik bildiradi:

- Bank va Mijoz o'rtasida elektron tarzda tuzilgan Shartnomalarni imzolash;

- Kelishuv, Shartnomalar va Bankning lokal (ichki) hujjatlariga muvofiq tarzda elektron hujjatlar almashinuvi ko'zda tutilgan bank mahsulotlari (operatsiyalari)ni Mijozga taqdim etish;

- majburiyatlarni bajarish, huquqiy munosabatlarni o'zgartirish yoki tugatish uchun yuridik ahamiyatga ega bo'lgan harakatlarni amalga oshirish;

- tomonlar o'rtasida axborot va hujjatlar almashinuvi.

6.9.2. Tomonlar Bank ERI va MBMO'Kdan quyidagilarni imzolash va almashish uchun foydalanadilar:

- Bank tomonidan bank mahsulotlari va/yoki xizmatlarini taqdim etish uchun zarur bo'lgan shartnomaviy hujjatlar, arizalar, so'rovnoma hamda boshqa hujjatlar;

- hujjatlarning skan-nusxalari;

- naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalarni o'z ichiga olgan elektron hujjatlar.

ERI bilan imzolanishi yoki MBMO'K bilan tasdiqlanishi mumkin bo'lgan hujjatlarga quyidagilar ham kiradi: hisobvaraqlar ochish uchun arizalar, kredit shartnomalari (talabnomalar), omonat shartnomalari, mablag'larni o'tkazish (bloklash va hokazo) bo'yicha farmoyishlar, bank kartalarini chiqarish uchun arizalar hamda bank xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq boshqa hujjatlar.

6.9.3. Tomonlar Bank ERI yoki MBMO'Kning elektron hujjatning tegishli Tomondan chiqqanligi va Tomonning vakolatli shaxsi tomonidan imzolanganligining so'zsiz isboti ekanligini tan oladilar. Bank ERI bilan imzolangan yoki MBMO'K bilan tasdiqlangan elektron hujjat shaxsiy imzo va muhr bilan tasdiqlangan qog'oz shaklidagi hujjatga tenglashtiriladi, u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi hamda Tomonlar uchun qog'oz shaklidagi hujjatni rasmiylashtirishdagi kabi huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi.

Elektron hujjatning haqiqiyliги to'g'risida nizolar kelib chiqqan holatlarda, Bank hujjatni aniq bir shaxs tomonidan imzolanganligi faktini tasdiqlash maqsadida texnik ekspertiza o'tkazishi mumkin. Elektron raqamli imzo (ERI) bilan imzolangan yoki Maxsus bir martalik o'zgaruvchan kodlar (MBMO'K) bilan tasdiqlangan elektron hujjat sud muhokamalari jarayonida maqbul dalil sifatida qabul qilinadi.

6.9.4. Elektron hujjatlar, agar ular ushbu bo'limning 6.9.1-bandi va 6.9.2-bandiga muvofiq imzolangan yoki tasdiqlangan bo'lsa, Bank ERI bilan imzolangan yoki MBMO'K bilan tasdiqlangan paytdan boshlab, Tomonning tegishli huquq va majburiyatlarini vujudga keltiradi.

6.9.5. ERI quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilganda haqiqiy deb tan olinadi:

- Mijozning tizimga kirish uchun autentifikatsiya qilinishi muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa;
- Bank ERIning Mijozga tegishli ekanligini va Bank ERIsining o'zi haqiqiy ekanligini tasdiqlagan bo'lsa.

6.9.6. MBMO'K quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilganda haqiqiy deb hisoblanadi:

- Mijozning tizimga kirish uchun autentifikatsiya qilinishi muvaffaqiyatli o'tgan bo'lsa;
- Bank tomonidan MBMO'K muvaffaqiyatli qabul qilingan bo'lsa.

6.9.7. Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 357-moddasiga asosan, ushbu Tartibning 6.9.1., 6.9.2., 6.9.3., 6.9.4., 6.9.5., 6.9.6. va 6.9.7-bandlaridagi shartlarni Kelishuv va Shartnomalar tuzilgan kundan boshlab yuzaga kelgan o'zaro munosabatlarga tatbiq etishga kelishib oldilar.

6.10. Shartnoma yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizo va kelishmovchiliklar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agar nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoni bo'lmasa, ular Kelishuvda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6.11. Bank va Mijoz o'rtasidagi ushbu Tartibda ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi hamda Kelishuv asosida tartibga solinadi.